

Vaqtни aytishni o'rganamiz



Soat necha bo'ldi?



13:00 – soat bir bo'ldi.



13:10 – birdan o'n daqiqa o'tdi.



13:30 – bir yarim.



13:45 – birdan qirq besh daqiqa o'tdi (o'n beshta kam ikki).



13:50 – birdan ellik daqiqa o'tdi (o'nta kam ikki).



1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling.

Aziza: Sen maktabga soat nechada borasan?

Madina: Men maktabga soat 13:00 da boraman.

Aziza: Sen soat nechada uyga kelding?

Madina: Men soat 18:00 da uyga keldim.

Aziza: Sen soat nechada darslarni bajarding?

Madina: Men soat 19:00 da darslarni bajardim.



2-topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping.

U devorda turadi,
Oyog'i yo'q, yuradi.

Hisob uchun yurib turar,
Yuragi tik-tik urar.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Sen soat nechada badantarbiya qilasan?
2. Sen maktabdan soat nechada kelasan?
3. Soat nechada tushlik qilasan?
4. Soat nechada darslaringni tayyorlaysan?



1-mashq. Vaqtlarni tartib bilan yozing.

1. Biz kechki ovqatni soat 19:00 da yeymiz.
2. Bolalar soat 21:00 da uxlashlari kerak.
3. Soat 07:00 da nonushta qilaman.
4. Soat 13:00 da tushlik qilamiz.



2-mashq. Vaqtlarni so'z bilan ifodalab yozing.

1. Ertalab soat 7 dan 30 daqiqa o'tganda maktabga ketaman.
2. Soat 12 dan 30 daqiqa o'tganda maktabdan kelaman.
3. Soat 16:00 da dars tayyorlayman.
4. Soat 21 dan 30 daqiqa o'tganda uxlashga yotaman.



4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Soat

Bugun ertalab tursam,
Soat to'xtab qolibdi.
Meni uyg'otaman deb,
O'zi uxlab qolibdi.

Betob bo'lib qoldimi
Yoki charchagan biroz?
Uni tuzata olar
Faqatgina soatsoz.

Fazilat Nosirova



“Soat” she'rini yod oling. Soatni bildiruvchi so'zlar ishtirokida beshta gap tuzing.

